

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"
ILMIY-TADQIQOT UNIVERSITETI**

KAMBAROVA DILFUZA USMANALIYEVNA

**G‘O‘ZA QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISH UCHUN KOLEYASI
ROSTLANADIGAN UNIVERSAL-CHOPIQ TRAKTORI YURISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.07.01- Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Kambarova Dilfuza Usmanaliyevna

G‘o‘za qator oralariga ishlov berish uchun koleyasi rostlanadigan
universal-chopiq traktori yurish tizimini takomillashtirish 3

Камбарова Дилфуза Усманилиевна

Усовершенствование ходовой системы универсально-пропашного трактора
с регулируемой колеей для междурядной обработки хлопчатника 19

Kambarova Dilfuza Usmanaliyevna

Improvement of the chassis system of a universal row-crop tractor with
adjustable track for inter-row cultivation of cotton 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 40

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"
ILMIY-TADQIQOT UNIVERSITETI**

KAMBAROVA DILFUZA USMANALIYEVNA

**G‘O‘ZA QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISH UCHUN KOLEYASI
ROSTLANADIGAN UNIVERSAL-CHOPIQ TRAKTORI YURISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.07.01- Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5428 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb- sahifasida (www.kstu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	Axmetov Adilbek Agabekovich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Musurmonov Azzam Turdiyevich texnika fanlari doktori, professor Xoliqov Baxtiyor Abdug'opporovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarni sertifikatlash va sinash Markazi

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi PhD 03/30.06.2020 T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27 sentabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119 Qarshi sh., Xonobod ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (453-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180119, Qarshi sh., Xonobod ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 16 sentabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "16" 09 dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi).



F.M. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

D.Sh. Chuyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, texnika fanlari doktori, professor

E.U. Eshdavlatov
Ilmiy darajalar beruvchilar ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ish sifati yuqori va energiya va resurstejamkor paxtachilik mashinalari va energetik vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Texnik ekinlar orasida g'ozga qimmatbaho ekin turi bo'lib, dunyoning 84 dan ortiq mamlakatlarida 32-34 mln. gektar maydonda yetishtirilishini hisobga olsak" qator oralig'iga ishlov berishda minimal energiya va resurs sarflab ishlatiladigan ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor traktorni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, Respublikamizda 60 sm, 76 sm va 90 sm qator oralig'ida ekilgan paxta dalalarida ishlatilayotgan yurish tizimi uch xil traktorlar o'rniga yagona yurish tizimiga ega traktorni ishlab chiqarishni o'zlashtirish va ularni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda g'ozga qator oralig'ida ishlatiladigan traktorlarning yangi avlodini yaratishning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda, jumladan qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan traktorlarning qator oralig'iga rostlanadigan yurish tizimini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Binobarin, istalgan qator oralig'iga rostlanadigan yagona yurish tizimiga ega resurstejamkor traktorni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va moddiy texnik resurslar sarfini kamaytirish, ish unumini oshirish uchun zamonaviy istiqbolli energetik vositalarini ishlab chiqish va qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida..."milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash..." vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, qishloq xo'jaligi ekinlarining, shuningdek g'ozaning ham har qanday qator oralariga rostlanadigan yurish tizimiga ega bo'lgan traktorlarning parametrlarini asoslash kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-son "Qishloq xo'jaligi mashinasozligining ilmiy-texnikaviy bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur soxaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon amaliyotida paxtachilik mashinalari majmuasi bilan ishlatiladigan g'ildirakli universal-chopiq traktorlarning yurish tizimlarining turli konstruksiyalari ishlab chiqilgan.

Dunyoning John Deere, CNH (AQSH), Fendt, Deutz-Fahr, CLAAS (Germaniya), Valtra (Finlyandiya), Kubota Corporation (Yaponiya), Foton Lovol, Dongfeng, YTO (XXR), "XTZ" OAJ (Ukraina), Traktor ilmiy-tadqiqot instituti (NATI), Uzoq Sharq agrar universiteti, "Peterburg traktor zavodi" AJ (Rossiya) va boshqa yirik firmalar, kompaniyalar, ilmiy markazlar, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan universal-chopiq traktorlarining yurish tizimlari konstruksiyalarini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ushbu muassasalarda g'ildirakli traktorlar yurish tizimlarining istiqbolli konstruksiyalarini ishlab chiqish, harakatlantirgichlarning tuproqqa salbiy ta'sirini kamaytirish, g'ildirakli traktorlarning tortish-ilashish xususiyatlarini oshirish va boshqalar bo'yicha ishlar olib borilmoqda¹.

Traktorlarning yurish tizimlari va ularning tuproqqa ta'siri nazariyasini o'rganish bo'yicha V.V.Guskov, I.P.Ksenevich, V.A.Rusanov, V.M.Zabrodskiy, B.S.Nosko, G.I.Kazakov, V.I.Kravchenko, V.M.Kryajkov, D.I.Zolotarevskiy, I.I.Vodyanik, M.I.Lyasko, A.L.Kamnev, A.S.Anikin, A.G.Bondarev, M.I.Smirnov, G.I.Kazakov, S.V.Shitov, A.V.Rusinov, N.F.Bocharov, A.P.Ziryaynov, A.P.Antonov, I.K.Makarets, S.N.Rijov, A.M.Sipuk, G.M. Anisimov, Yu.L. Kolchinskiy, O.V. Lebedev, A.I. Kildeev, I. Marupov, Ye.M. Kabanova, T.A. Yakubov, S.N. Shafigulin, V.P. Logachev, B.A. Qambarov, Sh.A. Axmedov, K.T. Renius, T. Szakács, L.A. Smith, R.L.Scharfer, R.E. Young, A.M.M.Sarhan, H.S.Al-Katary, M.N. El-Awady, W.E. Hart, J.A. Lines, R.K. Dubey, Singh Bachchan, B.D. Soane, J. Kucsewski va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarda g'oz qator oralarining istalgan oralig'iga moslashtiriladigan koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorlar yurish tizimlarining konstruktiv sxemalarini asoslash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" MTU va "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi konstruktorlik texnologik markazi" MCHJning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-201903293 "Paxta dalasi agrofoni shakllantirish maqsadida bazaviy mashinalar to'plamini agregatlash uchun qayta sozlanuvchi energetik vositani ishlab chiqish" va PZ-2022101304 "G'oz qator oralariga mos g'ildirak izlari rostlanadigan universal traktorni ishlab chiqish" (2022-2023 yy.) mavzusidagi davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi traktor g'ildiraklari koleyasini pog'onasiz rostdash hisobiga g'ozning turli qator oralariga moslashtiriladigan traktorning yurish tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

g'ildiraklar izini pog'onasiz rostdash hisobiga g'ozning turli qator oralariga moslashtiriladigan traktor yurish tizimining tuzilmaviy sxemasini tanlash va konstruksiyasini ishlab chiqish;

¹<http://www.avtomash.ru/gur/2006/20060103.htm>; <http://www.dslib.net/les-texnologiy/optimizaciya-parametrov-balansirnoj-telezhki-s-celju-snizhenija-uplotnjajuwego.html>; <http://tekhnosfera.com/view/44977/d#?page=1>; <http://tekhnosfera.com/povyshenie-tyagovo-stsepyih-svoystv-kolesnyh-traktorov-klassa-l-4-na-polevyh-transportnyh-rabotah-v-usloviyah-amurskoy-ob#ixzz5Yzr6H1mp>

traktorning yurish tizimini g'ozaning turli qator oralariga moslashtirish va traktorning koleyasini rostdash qurilmasining parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlar o'tkazish;

g'ildiraklar koleyasini pog'onasiz rostdash hisobiga g'ozaning turli qator oralariga moslashtiriladigan yurish tizimiga ega bo'lgan traktorning parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

g'ildiraklar koleyasini pog'onasiz rostdash hisobiga g'ozaning turli qator oralariga moslashtiriladigan yurish tizimiga ega bo'lgan traktorning tajriba namunasini tayyorlash va xo'jalik sinovlarini o'tkazish hamda uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida g'oz, g'ildiraklar koleyasini pog'onasiz rostdash hisobiga g'ozaning turli qator oralariga moslashtiriladigan yurish tizimiga ega traktor va uning tuproq hamda g'oz bilan o'zaro ta'sirlashish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti g'ildiraklar koleyasini pog'onasiz rostdash hisobiga g'ozaning turli qator oralariga moslashtiriladigan yuritmal traktorning parametrlari, himoya zonasi kattaligi, g'oz ildiz tizimi joylashgan zonada tuproqning zichlanishi va hosil elementlarining urib tushirilishining traktor yuritmasining rostdanadigan parametrlariga bog'liqligini ifodalovchi analitik ifodalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanikaning klassik usullari, matematik statistika, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va maqbullashtirish, tenzometriya hamda boshqa mavjud me'yoriy hujjatlarda keltirilgan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

traktor g'ildiraklari diskasini uning gardishiga nisbatan siljitish evaziga demontaj ishlarisiz traktor koleyasini pog'onasiz rostdashni ta'minlovchi qurilma konstruksiyasi ishlab chiqilgan (UZ IAP 07964);

traktor yurish tizimi parametrlari va qator oralig'i kattaligi asosida traktor koleyasini ekin qator oralariga moslik darajasini baholash me'yori va undan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan;

g'ozaning ildiz tizimi joylashgan zonada tuproqning zichlanishi va hosil elementlarini to'kilishini kamaytirish shartidan traktorning maqbul koleyasini aniqlovchi analitik ifodalar keltirib chiqarilgan;

traktor yurish tizimining tuproqqa va o'simlikga salbiy texnogen ta'sirini minimallashtirish shartidan kelib chiqib, traktor g'ildiraklari koleyasini pog'onasiz rostdash qurilmasining parametrlarini aniqlovchi analitik bog'lanishlar keltirib chiqarilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

belgilangan talablar darajasida kam sarf-xarajatlar bilan g'oz qator oralariga moslasha oladigan asoslangan parametrlarga ega bo'lgan koleyasi pog'onasiz rostdanadigan traktor ixtiro darajasida (UZ IAP 07964) ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan koleyasi pog'onasiz rostdanadigan traktor dala va transport ishlarida qo'llanilganda mehnat va moddiy-texnika resurslari sarfi kamayishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usullar va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, ishlab chiqilayotgan traktorning parametrlarini nazariy asoslashda oliy matematika va nazariy mexanika qoidalari va usullariga amal qilinganligi, tajriba natijalariga matematik statistika usullari yordamida ishlov berilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlardan olingan natijalarning o'zaro adekvatligi, xo'jalik sinovlarining ijobiy natijalari va g'ildiraklarini koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yurish tizimi g'o'zaning turli qator oralariga aniq moslanishini ta'minlaydigan g'ildiraklarini koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorni hamda hosil elementlarining urilishini va g'o'zaning ildiz tizimi joylashgan zonada tuproqning zichlanishini kamaytiradigan himoya zonasi kattaligini traktor yurish tizimining rostlanadigan parametrlariga bog'liqligini tavsiflovchi analitik bog'lanishlarning ishlab chiqilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarini boshqa shunga o'xshash qurilmalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hosil elementlarining to'kilishini va g'o'za qator oralarining himoya zonasidagi tuproq va ildiz tizimining zichlanishini kamaytirishi hamda traktorning agrotexnik o'tuvchanligini oshirishidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yurish tizimi g'ildiraklarini, g'o'zaning turli qator oralariga aniq moslashtirilishini ta'minlaydigan koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorni ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlardan olingan natijalar asosida:

koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasining ixtiroga patenti olingan ("Koleyasi o'zgartiriladigan traktor", № IAP 07964, 2022-y.). Natijada koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktor O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-289-son ma'lumotnomasi). Natijada, maydon birligiga sarflanadigan moddiy-texnika resurslari xarajatlarini 8,36% ga, yillik mehnat sarfini 6,86 kishi/soatga kamaytirishga hamda traktorning agrotexnik o'tuvchanligini oshirishga erishilgan.

koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorni ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun loyiha-konstrktorlik hujjatlari (texnikaviy topshiriq va chizmalar) "QXMKTM" MCHJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan "QXMKTM" MCHJning 2025-yil 3-martdagi 2/2-son ma'lumotnomasi). Natijada koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorni ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasining 1 ta ixtiroga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"G'oz qator oralariga ishlov berishning energiya ta'minotining hozirgi holati. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari"** deb nomlangan birinchi bobida respublikamizda g'oz qator oralariga ishlov berishning hozirgi holati, jahon miqyosida traktorlarning yurish tizimlari va g'ildiraklarni koleyasi rostdashning texnik vositalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda respublikamizda 60 sm, 76 sm yoki 90 sm qator oralarigida ishlaydigan yagona traktor mavjud emas. Mavjud traktorlar esa u yoki bu qator oralarida ishlashga mo'ljallab ishlab chiqarilmoqda.

O'tkazilgan sharhlar va patent tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, traktor orqa g'ildiraklarining koleyasini o'zgartirishga prostavkalar yordamida, g'ildirak gupchagini yarim o'q bo'ylab chervyakli, reykali yoki polzunli mexanizmlar bilan siljitish yoki kronshteynlari markazda joylashmagan gardishni diskka nisbatan burish, shuningdek g'ildirak diskini yarim o'q flanetsiga nisbatan ichkariga yoki tashqariga qavariq qilib burish orqali erishiladi.

Koleyani o'zgartirishning sanab o'tilgan usullari ko'tarish vositalarini qo'llash bilan amalga oshiriladi va bunda koleyani o'zgartirish ba'zi hollarda pog'onali, boshqa hollarda g'ildirakni olib qo'yish va o'rnatish bilan, uchinchi hollarda esa yetarli bo'lmagan diapazonda amalga oshiriladi. Seriyali traktorlarning ushbu kamchiliklarini bartaraf etish turli g'oz qator oralariga aniq moslashadigan traktorning yurish tizimini yaratish talab qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **"Traktor yurish tizimining g'oz ildiz tizimi joylashgan tuproqning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini o'rganish va tadqiqot obyektini tanlash"** deb nomlangan ikkinchi bobida traktor yurish tizimining g'oz ildiz tizimi joylashgan tuproqning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini o'rganishga oid umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida o'simlik nihollarining qatorlar to'g'ri chiziqiligidan og'ish kattaligi aniqlandi. Buning ushun tanlab olingan g'oz

qator oralaridan birida egat o'rtasiga uzunligi 20 m bo'lgan shpagat tortildi. Keyinchalik, shpagat markazidan qator oralig'ining ham o'ng, ham chap qatorlarida joylashgan har bir o'simlikkacha bo'lgan masofalarni o'lchash va olingan o'lchovlarga statik ishlov berish orqali ularning o'rtacha kvadratik og'ishi aniqlandi, bu esa o'simlik nihollarining to'g'ri chiziqdan og'ish qiymati hisoblanadi.

Tajriba ma'lumotlariga statik ishlov berish natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, nihollarning o'simlik qatorlari to'g'ri chizikli joylashuvidan og'ish kattaligi $\pm 2,02$ dan $\pm 2,74$ sm gacha oraliqda bo'lib, umuman olganda, tajribalar bo'yicha o'rtacha $\pm 2,42$ sm ni tashkil etadi, buni ildiz tizimi rivojlangan g'o'za qator oralariga ishlov berishda, shuningdek, traktor koleyasini u ishlov beradigan qator oralariga mosligini baholashda hisobga olish kerak.

Traktorning yurish tizimi bilan tuproqning taptalishi ikkita ko'rsatkich, ya'ni tuproqning zichligi va qattiqligi bilan tavsiflanadi. Ulardan birinchi ko'rsatkich nihol olish, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi hamda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligiga, ikkinchisi esa qishloq xo'jalik mashinalarining tortishga qarshiligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunda tortishga qarshiliklarning tuproq qattiqligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqligini inobatga olib, traktor o'tgandan so'ng uning turli harakat tezliklarida va shinadagi havo bosimida g'ildiraklari qoldirgan izidagi tuproq qattiqligining o'zgarishi o'rganildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, traktorning harakat tezligi ortishi bilan uning o'tishidan keyin tuproq qattiqligining o'sish jadalligi pasayadi. Vaholanki, shinadagi havo bosimining ortishi tadqiq qilinayotgan traktorning barcha harakat tezliklarida tuproq qattiqligining ortishiga olib keladi. Shunday qilib, shinadagi bosim 0,12 MPa bo'lganda, o'rganilayotgan traktorning harakat tezligini 1,7 km/h dan 9,3 km/h gacha oshirish tuproq qattiqligining o'sish intensivligini 0-10 sm; 10-20 sm; 20-30 sm; 30-40 sm va 40-50 sm dagi qatlamlar bo'ylab mos ravishda 0,11; 0,07; 0,21; 0,17 va 0,09 MPa pasayishiga olib keldi.


Harakat tezligidan farqli o'laroq, traktor shinasidagi havo bosimining ortishi, u o'tgandan so'ng tuproq qattiqligining ortishiga olib keladi. Masalan, traktorning harakat tezligi 1,7 km/h bo'lganda, shinadagi havo bosimining 0,12 MPa dan 0,22 MPa gacha ortishi 0-10; 10-20; 20-30; 30-40 va 40-50 sm qatlamlarida mos ravishda tuproq qattiqligining 0,16; 0,02; 0,22; 0,21 va 0,22 MPa ortishiga olib keldi.

Ko'rsatkichlar o'rtasida ma'lum gorizont tuprog'i tarkibining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq kichik farq bo'lsa-da, ularning barchasi tuproq qattiqligining oshishi tomon ijobiy tendensiyaga ega. Binobarin, yurish tizimining tuproqqa zichlovchi ta'sirini kamaytirish uchun muayyan texnologik operatsiyalarni bajarishda mazkur traktorning texnik shartlarida nazarda tutilgan shinadagi havo bosimining minimal qiymatini tanlash zarur.

Ma'lumki, respublikamizda g'o'za 60 sm; 76 sm va 90 sm qator oralig'ida etishtiriladi. Qator oralarining har bir turi uchun shu qator oralariga mos koleyali traktor ishlatiladi. Bu traktorlarda koleya turli usullar bilan pog'onali rostlanadi, bu esa traktor koleyasini u ishlaydigan qator oralariga aniq moslash imkonini bermaydi.

G'ildiraklar koleyasini rostlashning ma'lum usullarining kamchiliklarini g'ildiraklarni yechmasdan va o'rnatmasdan traktor koleyasini keng diapazonda pog'onasiz rostlashni ta'minlaydigan ixtiro (UZ IAP 07964) darajasida ishlab

chiqilgan texnik yechim bilan bartaraf etildi va uning asosida yurish tizimini g'ozaning turli qator oralariga aniq moslashtirishni ta'minlaydigan g'ildiraklari koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktor ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. G'ildiraklar koleyasi pog'onasiz rostlash mexanizmi

Ishlab chiqilgan traktorni bortli oxirgi uzatmasining yarim o'qi flanetsi 6 ga orqa g'ildirak 1 diski 5 mahkamlangan. Disk 5 ning kronshteyni 9 ga II-simon kronshteyn 3 vositasida g'ildirakning gardishi 2 mahkamlangan. II-simon kronshteynlar 3 ning har biri ikkita paz 4 bilan bajarilgan bo'lib, ular bo'ylab mahkamlash boltlari 10 va suxar 8 bilan qotiriladigan disk 5 u yoki bu tomonga siljiriladi. Disk kronshteynining paz bo'ylab siljishini fiksatsiyalash uchun ustqo'ymalar 7 bajarilgan va ular II-simon kronshteyn 3 ga payvandlangan.

Diskning paza bo'ylab siljishini tutib turish uchun uning ustqo'ymalari 7 ga mahkamlash boltlari 10 bilan suxar 8 siqib qo'yiladi. Disk 5 ni kronshteyn 9 bilan birga g'ildirak gardishini 2 ning eni bo'ylab u yoki bu tomonga siljitish yordamida koleyani rostlash amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning "G'ildiraklar koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorning parametrlari va ish rejimlarini nazariy tadqiq qilish" deb nomlangan uchinchi bobida g'ildiraklar koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorning tuzilishi va parametrlari, g'ozaga ildiz tizimi joylashgan zonadagi tuproqning deformatsiyalanish-kuchlanganlik holatiga traktor parametrlarining ta'sirini tahliliy tadqiq qilish natijalari keltirilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, traktor harakatlantirgichlarining g'ozaga ildiz tizimi joylashgan zonadagi tuproqqa salbiy ta'sirini traktor g'ildiraklari koleyasini ekin qator oralariga moslik darajasini oshirish hisobiga qisman bartaraf etish mumkin.

Traktor koleyasini g'ozaga qator oralariga moslik darajasi ko'rsatkichi ξ qator oralari kengligi b_m , traktor g'ildiraklari koleyasi B_k , g'ildiraklar orasidagi qatorlar soni n_p , ruxsat etilgan himoya zonasi l_z va g'ildirak harakati trayektoriyasining Δ qator oralari simmetriya o'qidan og'ishining maksimal qiymati (3-rasm) asosida quyidagi bog'liqlikdan aniqlanadi


$$\xi = \left(1 - \left| 1 - \frac{B_k \pm \left(\frac{b_u}{2} + l_z + \Delta \right)}{b_m n_p \pm \frac{b_m}{2}} \right| \right) 100, \% \quad (1)$$

yoki
$$\xi = (1 - |1 - k_c|) 100, \% \quad (2)$$

(2) dagi k_c - traktor koleyasining ekin qator oralariga mos kelish koeffitsiyenti.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, respublikamiz paxtachilik xo'jaliklari mashina-traktor parklarida mavjud bo'lgan seriyali traktorlar faqat 60 sm va 90 sm

qator oralig'ida to'laqonli ishlashni ta'minlaydi. Ularni 70 sm va 76 sm



3-rasm. Hisoblash sxemasi

qator oralig'ida qo'llash o'simlik qatorlarining payhon bo'lishiga yoki shikastlanishiga olib keladi, binobarin, ular bu qator oraliqlarida to'laqonli ishlashni ta'minlamaydi.

Traktorning ekin qator oralarida normal ishlashi uchun traktor g'ildiraklari o'simliklarga minimal ta'sir ko'rsatgan holda qator oralarining simmetriya o'qi bo'ylab harakatlanib, himoya zonasi l_z va traktor g'ildiragi shinasi kengligi b_{sh} orasida kichik bo'shliq Δ qoldirishi kerak. Bunday bo'sh joyning mavjudligi traktorning o'simliklar qatoridan o'tishida qator simmetriya o'qidan ozgina tebranma og'ishi bilan traktor g'ildiragining himoya zonasiga kirilishini oldini oladi. Demak, traktorning ekin qator oralaridan xavfsiz o'tishi

uchun uning har bir g'ildiragi ekin qator oralarining simmetriya o'qi bo'ylab o'tishi kerak, bunga esa traktor g'ildiraklarining koleyasi ekin qator oralariga to'g'ri kelgandagina erishiladi.

Traktor koleyasi ekish qatorlari orasiga to'g'ri kelganda traktor koleyasi kattaligi B_k qatorlar orasi kattaligi b_m ning karrali qiymatlariga teng bo'ladi, ya'ni

$$B_k = nb_m, \quad (3)$$

bunda B_k - universal-chopiq traktori koleyasi, mm, n - g'ildiraklar orasidagi qatorlar soni, b_m - qator oralig'i kengligi, mm.

Traktor koleyasi kattaligi B_k qatorlar oralig'i kengligining karrali qiymatiga teng bo'lmaganda, ularning o'zaro ζ_k kattalikka mos kelmasligi yuzaga keladi

$$\pm \zeta_k = B_k - nb_m, \quad (4)$$


bunda ζ_k - universal-chopiq traktori koleyasi o'lchamining ishlov beriladigan qator oralig'iga mos kelmaslik kattaligi, mm.

Universal-chopiq traktori koleyasi o'lchamining ishlov berilayotgan qator oralig'iga mos kelmaslik kattaligi miqdoridan kelib chiqib, g'ildirak gardishining diskiga nisbatan siljitish miqdori aniqlanadi

$$\pm s = \frac{\chi_k}{2}, \quad (5)$$

bunda $\pm s$ - g'ildirak gardishining diskiga nisbatan siljish kattaligi, mm. Berilgan kattalikning "plyus" qiymatida gardish g'ildirak diskiga nisbatan g'ildiraklarning ichki tomoniga, "minus" qiymatida esa g'ildiraklarning tashqi tomoniga siljitiadi. Masalan, respublikamizda keng qo'llanilayotgan TTZ-80.11 seriyali universal-chopiq traktorning ishlov berilayotgan qator oralig'i $b_m = 76$ sm bo'lganda g'ildirak koleyasi o'lchamining nomuvofiqligi $\chi_k = B_k - nb_m = 1800 - 2 \times 760 = 280$ mm, g'ildirak gardishining diskiga nisbatan siljish kattaligi esa $s = 280 / 2 = 140$ mm bo'lib, u "plyus" qiymatga ega. Demak, ushbu traktorning orqa g'ildiraklari koleyasini 76 sm qator oralig'iga aniq moslashtirish uchun uning g'ildiraklari gardishini disklarga nisbatan g'ildiraklarning ichki tomoniga 140 mm ga

siljilishi kerak. Ushbu shartni bajarish uchun diskning mahkamlash elementlarining gardish kronshteyni pazi bo‘ylab harakatlanish diapazoni, binobarin, pazning uzunligi (4-rasm) bunday siljishni ta‘minlashi kerak.



4-rasm. Hisoblash sxemasi

Odatda, g‘o‘zaning shikastlanishini kamaytirish maqsadida bort uzatmasining korpus detallari himoya zonasiga kirmasligi kerak. Shuning uchun II-simon kronshteyn pazining uzunligini oxirgi uzatma korpusini g‘ildirak gardishidan tashqariga chiqishini istisno qilish shartidan quyidagi ifodadan aniqlaymiz

$$l_n = b_{u\delta} - b_{\delta n}, \quad (6)$$

bunda l_n - paza uzunligi, mm; $b_{u\delta}$ - g‘ildirakning deformatsiyalangan shinasining kengligi, mm; $b_{\delta n}$ - bortli uzatma korpusining kengligi, mm.

Bunda pazaning chekka qirradi g‘ildirak gardishining tashqi qirrasidan disk 9 ning ichki qirradi va kronshteyn 10 ning mahkamlash elementlari 15 uchun mo‘ljallangan teshik markazi orasidagi masofaga l_0 siljigan bo‘lishi kerak. Bu esa bortli oxirgi uzatma korpusining g‘ildirak konturidan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi va shu bilan traktorning ishlov berilayotgan g‘o‘zaga shikast yetkazmasdan qator oralaridan o‘tishini ta‘minlaydi.


Hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, shinaning konstruktiv kengligi $b_{uu} = 469$ mm bo‘lganda, uning ko‘ndalang deformatsiyasini hisobga olgan holda $b_{u\delta} = 487$ mm va bortli uzatma korpusining kengligi $b_{\delta n} = 236$ mm bo‘lganda, pazning uzunligi $l_n = 251$ mm bo‘ladi. U holda mahkamlash elementlarining parametrlarini hisobga olganda diskning paza bo‘ylab yurishi yaxlitlangan holda $l_x = 250$ mm bo‘ladi.

Rostlash jarayonini osonlashtirish uchun gardish va diskning kronshteynlari minimal bo‘lishi, lekin shu bilan birga ular g‘ildirakka tushadigan maksimal yuklamani ishonchli qabul qilishi kerak. Diskni g‘ildirak gardishga mahkamlashning uch, to‘rt, besh va olti nuqtali sxemalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, diskni g‘ildirak gardishiga mahkamlashning faqat uchburchak va beshburchak usullarida yuqori mahkamlash nuqtasiga nisbatan bazis mavjud, shuning uchun ular boshqalarga nisbatan barqarorroq.

Amalda bazisga qo‘yilgan yuklanishning asosiy kuchlanishlari ikkala usulda ham yuqori nuqtaga intiladi, lekin bunda agar uchburchakli bazisda kuchlanishlar bitta nuqtada to‘plansa, beshburchakli bazisda kuchlanishlar uchta nuqtaga taqsimlanadi va shu bilan disk qabul qiladigan kuchlanishlarni tarqatib yuboradi, shuning uchun diskning ham, gardishning ham bir-biriga mahkamlanadigan kronshteynlari sonini $Z_k = Z_\delta = 5$ dona deb qabul qilamiz.

Agar gardish kronshteynining qalinligi ishonchlilik va mustahkamlik nuqtayi nazaridan qabul qilinsa, gardish kronshteyni (5-rasm) chiqish uzunligi, kengligi, balandligi va egilish burchagi diskning gardishga nisbatan ularning aylanish o‘qi bo‘ylab siljishini s kattalikka rostlash imkoniyatidan kelib chiqqan holda qabul

qilinadi. Mustahkamlik va ishonchlilikni ta'minlash, shuningdek, maksimal samarali foydalanish uchun gardish kronshteynining uzunligini respublikada



5-rasm. Gardish kronshteyni parametrlarini aniqlash sxemasi

qo'llaniladigan standart g'ildiraklar gardishining kengligidan kelib chiqib, gardish chetidan ma'lum bir masofa d_3 ni hisobga olgan holda tanlaymiz, ya'ni

$$l_k = b_o - 2d_3, \quad (7)$$

bunda b_o - g'ildirak gardishining o'tqazish kengligi, mm.


G'ildirak gardishining o'tqazish kengligining standart qiymati $b_o = 314$ mm. Demak, gardish chetidan $d_3 = 10$ mm uzoqlashganda gardish kronshteynining uzunligi 294 mm bo'ladi.

Yaxlitlab $l_k = 290$ mm deb olamiz.

Gardish kronshteynining balandligi va kengligini gardish va disk kronshteynlarini mahkamlash bolti bo'shatilganda suxariqning ikki pazali ustqo'yma boylab erkin xarakatlanishini ta'minlash shartidan kelib chiqib aniqlaydi

$$h_k = R_{no} - R_{60} + c_{ko} + c_{ho} + h_c + \Delta_k, \quad (8)$$

bunda R_{no} - R_o radiusli gardishni o'tqazish radiusi, mm; R_{60} - gardishning ichki radiusi, mm; c_{ko} , c_{ho} - mos ravishda kronshteyn va gardish qoplamasining qalinligi, mm; h_c - suxariqning balandligi, mm; Δ_k - suxariqni gardishning ichki yuzasi bo'ylab erkin o'tishi uchun zarur bo'lgan texnologik tirqish, mm.



6-rasm. To'g'in kronshteynining kengligini aniqlash sxemasi

Hisoblash sxemasidan (6-rasm) ko'rinib turibdiki, kronshteynning kengligi


$$b_k = l_c + 2r_o + 2\Delta_c + 2l_p = l_c + 2r_o + 2\Delta_c + 2h_k \operatorname{tg} \alpha_k, \quad (9)$$

bunda b_k - gardish kronshteynining kengligi, mm; l_c - suxarikni uzunligi, mm; r_o - yaxlitlash radiusi, mm; Δ_c - suxariqning bir tekis yotishini ta'minlash uchun tirqish mm; l_p - kronshteyn qovurg'asi tores uchining egilish joyiga nisbatan chiqishi, mm; α_k - gardish kronshteyni tores uchlarining egilish burchagi, °.

Mahkamlash elementlari sifatida M16 bolti va bir-biridan 50 mm masofada joylashgan ikkita M16 rezkali teshikli suxarikning o'zi qo'llanilganda, mustahkamlik zaxirasini hisobga olgan holda yon tomonlarda 24 mm dan qoldirib, suxarikning uzunligini $l_c = 98$ mm deb qabul qilish mumkin.

Kronshteynning torets qirradi g'ildirak gardishiga uch xil holatda (7-rasm) mahkamlanishi mumkin: radial (a); buralish momenti yo'nalishi tomonga og'ish burchagi bilan (b) yoki buralish momenti yo'nalishiga qarama-qarshi tomonga og'ish burchagi bilan (e). Shulardan uchinchi holat, ya'ni kronshteyn qirradi burovchi moment ta'siriga qarama-qarshi yo'nalishda joylashgan holat traktor g'ildiragi gardishi

kronshteynining mustahkamligi va ishonchli ishlashi nuqtayi nazaridan eng maqbul hisoblanadi. Bunday holatga quyidagi hollarda erishiladi:



$$\alpha_K \leq \arctg \frac{P_K}{G_m}. \quad (10)$$

Traktor ishlayotganda vujudga keladigan P_K kuchining turli qiymatlari uchun o'tkazilgan hisoblar bukilish burchagi α_K $0^\circ < \alpha_K < 28^\circ 10'$ oralig'ida bo'lishini ko'rsatdi, $\alpha_K = 28^\circ 10'$ deb qabul qilamiz.

7-rasm. Gardish kronshteyniga ta'sir etuvchi moment va kuchlar sxemasi

va egilish burchagi diskning gardishga nisbatan siljishini ularning

aylanish o'qi bo'ylab o'simlik kurtaklariga zarar yetkazmasdan s kattalikka rostlash imkoniyatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda disk kronshteynining kengligi b_δ uning gardish kronshteyni o'lchamlari chegarasidan chiqmosligi shartidan kelib chiqib quyidagi ifoda bilan aniqlanadi

$$b_\delta = l_c + 2 r_o + 2\Delta_c. \quad (11)$$

Hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, $l_c = 98$ mm; $r_o = 6$ mm va $\Delta_c = 2$ mm bo'lganda mahkamlash bikrligini ta'minlovchi disk kronshteynining kengligi 114 mm bo'ladi, yaxlitlangan holda $b_\delta = 120$ mm qabul qilamiz.

Traktor koleyasi rostlanayotganda disk va bort uzatmasining chiqib turgan elementlari traktorning ogirlik kuchi ta'sirida deformatsiyalangan shina kengligiga teng bo'lgan zonadan chiqib ketmasligi kerak. Bu shart quyidagi hollarda ta'minlanadi:

$$l_\delta = (b_{\delta n} + c_\delta + c_{\delta H}) / 2, \quad (12)$$

bunda l_δ - disk kronshteynining qulochi, mm; $b_{\delta n}$ - bort uzatmasining eni, mm; c_δ - diskning qalinligi, mm; $c_{\delta H}$ - disk qoplamasining qalinligi, mm.

O'tkazilgan hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, $b_{\delta n} = 236$ mm, $c_\delta = 14$ mm va $c_{\delta H} = 14$ mm bo'lganda disk kronshteynining qulochi $l_\delta = 132$ mm bo'ladi.

Disk kronshteynining egilish burchagi α_δ koleyani rostlashda uning gardish kronshteyni yuzasi bo'ylab siljishini va mahkamlashda ularning zich joylashishini ta'minlash shartidan aniqlanadi, bu shart quyidagi hollarda ta'minlanadi:

$$\alpha_\delta = \varepsilon + \pi / 2, \quad (13)$$

bunda ε - diskning qavariq sirtining qiyalik burchagi, °

Disk qavariq sirtining qiyalik burchagi standart bo'lib 20° ga tengligini hisobga olsak, disk kronshteynining egilish burchagi $\alpha_\delta = 110^\circ$ bo'ladi.

Dissertatsiyaning "**Koleyasi pog'onasiz rostlanadigan traktorning parametrlari va ish rejimlarini eksperimental tadqiq qilish**" deb nomlangan to'rtinchi bobida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish dasturi va usullari hamda ularning natijalari keltirilgan.

Ishlab chiqilgan koleyasi rostlanadigan traktorida koleyasi ishlov beriladigan qator oralig'iga moslashtirilishiga bog'liq holda 1200 mm dan 1800 mm gacha o'zgarishi natijasida traktor massasining uning yurish tizimining tayanch nuqtalari bo'yicha qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Ushbu hodisaning traktor ekspluatasion korsatkoslariga

ta'sirini baholash uchun laboratoriya-stend tadqiqotlari o'tkazildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, traktorning maksimal koleyasida oldingi o'ng va chap g'ildirakka mos ravishda 695 kg va 715,4 kg traktor massasi to'g'ri kelgan bo'lsa, minimal koleyasida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 750,2 kg va 660,2 kg ni tashkil etdi.

Stendda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilayotgan koleyasi rostlanadigan universal-chopiq traktorining 60 sm, 70 sm, 76 sm va 90 sm qator oralig'ida ishlashga moslashtirilishiga qarab ag'darilish burchagi 30°06' dan 31° gacha tashkil etdi, demak, uning ko'ndalang statik turg'unligi GOST 12.2.019-2005 talablariga mos kelishi aniqlandi.


Tractor g'ildiragini tuproqqa tasirini tadqiqida birinchi bosqichda traktor g'ildiraklarining qator oralaridagi tuproqqa beradigan bosimi qator oralarining o'rtasida (8-rasm, a) va kengligi bo'yicha (8-rasm, b) tenzodatchiklar yordamida aniqlandi. Bunda g'ildirakning qator oralaridagi tuproqqa bosimi ildiz tizimi joylashgan turli qatlamlari bo'yicha bu bosimning maksimal qiymatini aniqlash maqsadida 10 cm, 20 cm va 30 cm chuqurliklarda o'lchandi.



8-rasm. Traktor yurish tizimining tuproqqa bosimini tadqiq qilish

G'ildirakning g'o'za qator oralari kengligi bo'ylab tuproqqa bosimi esa faqat g'o'za qator oralarining yarmida, ya'ni uning o'rtasidan o'simlik nihollari qatorigacha bo'lgan oraliqda, tuproqning ildiz tizimi joylashgan qatlami chuqurligining o'rtasiga teng bo'lgan 15 cm chuqurlikda o'lchandi. Ikkinchi bosqichda traktor g'ildiraklarining qator oralaridagi tuproqqa beradigan bosimi bevosita ildiz tizimi joylashgan zonada 10 cm, 20 cm va 30 cm chuqurlikda o'lchandi (8-rasm, v).

O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki (9-rasm), traktorning barcha o'rganilgan harakat tezliklarida g'ildiraklarning tuproqqa eng katta bosimi tuproqning yuqori qatlamlarida 0-10 cm va 10-20 cm chuqurliklarda sodir bo'ladi. Bunda uning maksimal qiymati traktorning minimal harakat tezligiga, minimal qiymati esa traktorning maksimal harakat tezligiga mos keladi.



9-rasm. Traktorning harakat tezligiga bog'liq holda g'ildiraklarning tuproq qatlamlari bo'ylab bosimi diagrammalari

Koleyani pogʻonasiz rostlash qurilmasi bilan jihozlangan traktorning nazariy va bir omilli tajribalarda oʻrganilgan texnologik parametrlari koʻp omilli tajribalarni matematik rejalashtirish usulini qoʻllash orqali optimallashtirildi. Bunda dispersiyaning bir jinsliliğini baholashda Koxren mezoni, regressiya koeffitsiyentlari qiymatlarini baholashda Styudent mezoni, regression modelining adekvatligini baholashda Fisher mezoni foydalanildi, tajribalarda olingan maʼlumotlarga "PLANEXP" dasturi yordamida ishlov berildi va ularning natijasida baholash mezonlarini adekvat tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- traktor yurish tizimining tuproqqa bosimi boʻyicha, kPa

$$Y_1 = 5,94 - 2,89 X_1 + 0,25X_2 - 0,12X_3 + 0,71X_1^2 + 0,39X_2^2 + 0,24X_2X_3; \quad (14)$$

- traktor oʻtgandan keyin tuproqning zichligi boʻyicha, g/cm³:

$$Y_2 = 1,173 - 0,112X_1 + 0,019X_2 - 0,027X_3 + 0,038X_1^2 + 0,016X_1X_2 + 0,016X_1X_3 - 0,008X_2X_3; \quad (15)$$

- hosil elementlarini urib tushirish boʻyicha, dona/p.m.

$$Y_3 = 0,115 - 0,049X_1 + 0,007X_3 - 0,017X_1^2. \quad (16)$$

Oʻtkazilgan uch oʻlchovli grafik talqinlar va tahlillarni hisobga olgan holda, ildiz tizimi joylashgan qatlam tuprogʻining 1,2 g/cm³ dan ortiq zichlanishiga yul qoymaslik va hosil elementlarining urib tushirish koʻrsatkichini ruxsat etilgan meʼyordan (0,2 dona/p.m.) yuqori boʻlmaslik shartidan kelib chiqqan holda (14), (15) va (16) regressiya tenglamalarini birgalikda yechib, tadqiq qilinayotgan omillarning maqbul parametrlari aniqlandi, bular: shinadagi ortiqcha havo bosimi $\rho_{uu} = 0,17$ MPa, traktorning ilgari lanma harakat tezligi $V_n = 7,0$ km/h gacha va traktor koleyasini gʻoʻza qatorlari orasiga mos kelish darajasi $\xi = 100$ % boʻlib, u traktor gʻildirak koleyasini pogʻonasiz rostlash uchun ishlab chiqilgan qurilma bilan sozlanadi.

Dissertatsiyaning "**Koleyasi pogʻonasiz rostlanadigan traktorning xoʻjalik sinovlari va uni qoʻllashning iqtisodiy samaradorligi**" deb nomlangan beshinchi bobida tadqiqot dasturi, tadqiqot usullari, gʻoʻza qator oralariga ishlov berish sifati, himoya zonasida tuproqning zichlashishi, hosil elementlarining urib ketishini baholash va matematik-statistik ishlov berish natijalari hamda oʻtkazilgan tadqiqotlar asosida tavsiya etilgan parametrlar boʻyicha ishlab chiqarilgan gʻildiraklari koleyasi pogʻonasiz rostlanadigan traktorni qoʻllashning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Gʻildirak koleyasi pogʻonasiz rostlanadigan traktorni asosiy ekin gʻoʻza qator oralariga ishlov berish jarayonida qoʻllash natijasida gʻoʻzaning hosil elementlarini toʻkilishini 43,48% ga, toʻgʻridan toʻgʻri ekspluatatsion xarajatlarni 8,36% ga, yillik mehnat sarfini 6,86 kishi/soatga kamaytirish taʼminlanadi. Natijada har bir traktor uchun yillik 25917335 soʻm iqtisodiy samaraga erishildi.

XULOSA

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Gʻildirakli traktorlar yurish tizimlarining konstruksiyalari va ularni takomillashtirish tendensiyalarini sharqi asosida, ularning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda, 60 sm, 70 sm, 76 sm va 90 sm qator oraligʻida ekilgan gʻoʻza va unga yoʻldosh ekinlarga ishlov berishda traktor gʻildiraklari koleyasini amaliyotda ishlatilayotgan almashtiriladigan yarim oʻqlar va ularning

kojuxlarini qo'llamagan holda, montaj-demontaj ishlarisiz pog'onasiz rostlashni ta'minlavchi ixtiro (UZ IAP 07964) darajasidagi texnik yechim ishlab chiqildi.

2. Respublikamizda qo'llanilayotgan seriyali traktorlar 60 sm va 90 sm qator oralig'ida ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ularning g'ildirak izlarining ushbu qator oraliqlariga mos kelish darajasi mos ravishda 95,46% va 94,91% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, ularning qator oralari 70 sm va 76 sm ga mos kelish darajasi atigi 90,93% va 83,75% ni tashkil etadi, bu esa o'simlik qatorlarining payhon bo'lishiga va shikastlanishiga olib keladi.

3. Traktorning harakat tezligi 3,0 km/h dan 7,17 km/h gacha ortishi bilan traktor yurish tizimi g'ildiraklari izidan tuprog'ga bo'lgan bosim 83,75 kPa dan 49,43 kPa gacha, ya'ni 40,97% ga, tuproqning ildiz tarqalgan qatlamida esa 18,34 kPa dan 0,39 kPa gacha, ya'ni 97,87% ga kamayishi aniqlandi. Bunda traktorning barcha harakat tezliklarida tuproqqa tushadigan eng katta bosim g'ildirak o'tgan zonada sodir bo'ladi, g'ildirak izining yon tomonlarida esa u kamayadi, binobarin, yurish tizimining tuproqqa salbiy texnogen ta'sirini kamaytirish uchun traktor qator oraliqlarining o'rtasidan agrotexnik talablarda ruxsat etilgan eng yuqori ilgarilanma tezlik bilan o'tishi kerak.

4. Traktor izining chuqurligiga shina ichidagi havoning ortiqcha bosimi va traktorning harakat tezligi traktor koleyasiga nisbatan sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tuproqning 0-30 sm qatlamdagi namligi va qattiqligi mos ravishda 14,7% va 1,5 MPa bo'lganda traktorning harakat tezligi 3,0 km/h dan 7,17 km/h oraliqda va shinadagi ortiqcha havo bosimiga (0,12 MPa dan 0,22 MPa gacha) bog'liq holda g'ildirak izining chuqurligi traktor koleyasining o'zgarishiga qaramasdan 17,87 mm dan 28,35 mm gacha oraliqda qoladi.

5. Ildiz tizimiga texnogen ta'sirni minimallashtirish va o'simlik nihollariga zarar yetkazmaslik shartidan kelib chiqib asoslangan traktorni koleyasini pog'onasiz rostlash qurilmasi parametrlarining ratsional qiymatlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- koleyani rostlash mexanizmidagi g'ildirak gardishi va diskini tutashtiradigan kronshteynlar soni 5 ta;

- gardish kronshteynining parametrlari: uzunligi $l_k = 290$ mm, kengligi $b_k = 214$ mm, balandligi $h_k = 100$ mm va qalinligi $c_{k0} = 14$ mm, tores uchlarining egilish burchagi $\alpha_k = 28^\circ 10'$, paz uzunligi $l_n = 200$ mm;

- disk kronshteynining parametrlari: qulochi $l_d = 132$ mm, kronshteyn kengligi $b_d = 120$ mm, qalinligi $c_d = 14$ mm va egilish burchagi $\alpha_d = 110^\circ$.

6. G'ildiraklar koleyasini pog'onasiz rostlash qurilmasi bilan jihozlangan traktorning tajriba nusxasini qo'llash hosil elementlarining urilishini seriyali traktorga nisbatan 43,48% gacha, 1 ha maydonga sarflanadigan to'g'ridan to'g'ri (ekspluatatsion) xarajatlarni 8,36% ga, yillik mehnat sarfini 6,86 kishi-soatga kamaytiradi va shu bilan bitta traktorga 25917335 so'm yillik iqtisodiy samara beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.111.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ “ТАШКЕНТСКИЙ
ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА”**

КАМБАРОВА ДИЛФУЗА УСМАНАЛИЕВНА

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ХОДОВОЙ СИСТЕМЫ УНИВЕРСАЛЬНО-
ПРОПАШНОГО ТРАКТОРА С РЕГУЛИРУЕМОЙ КОЛЕЕЙ ДЛЯ
МЕЖДУРЯДНОЙ ОБРАБОТКИ ХЛОПЧАТНИКА**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины.
Механизация сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2025.1.PhD/Т5428.

Диссертация выполнена в Национально-исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице www.kstu.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:	Ахметов Адилбек Агабекович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Мусурмонов Аззам Турдиевич доктор технических наук, профессор Холиков Бахтиёр Абдугоппорович доктор философии по техническим наукам (PhD)
Ведущая организация:	Центр сертификации и испытаний сельскохозяйственной техники и технологий при Министерстве сельского хозяйства

Защита диссертации состоится 27 сентября 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.Т.111.02 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном техническом университете (Адрес: 180119, г.Карши, ул. Ханабад, 19-уй. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного технического университета (регистрационный номер 53). Адрес: 180119, г.Карши, ул. Ханабад, 19-уй. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz).

Автореферат диссертации разослан 16 09 2025 года.

(Протокол рассылки № 4 16 09 2025 года)



Ф.М.Маматов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Д.Ш.Чуянов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Е.У. Эшдавлатов
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одно из ведущих мест занимает применение энергосберегающих хлопководческих машин и энергетических средств с высоким качеством работы. «Если учесть, что среди технических культур хлопчатник является ценной культурой и он возделывается более чем 84 странах мира на площадях 32-34 млн. гектаров», то очевидным становится применение на практике при междурядной обработке посевов энерго-ресурсосберегающих тракторов, работающих с минимальными энерго и ресурсозатратами с высоким качеством работы и производительностью. В этом аспекте вместо используемых в республике на хлопковых полях для посева культур на междурядьях 60 см, 76 см и 90 см тракторов с тремя различными видами ходовых систем, разработка и широкое применение трактора с единственным видом ходовой системы имеет особое значение.

В мире ведутся ширококомасштабные научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических основ тракторов нового поколения, используемых на междурядных обработках хлопчатника. В этом направлении, в частности, особое внимание уделяется созданию регулируемых ходовых систем тракторов, применяемых в сельском хозяйстве. В этом аспекте актуальной является разработка ресурсосберегающего трактора с единственной ходовой системой, регулируемой на любое междурядье.

